

XITOIY TILINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-56-61>

Mahliyo Umarxodjayeva

JIDU “Sharq tillari” kafedrası

katta o‘qituvchisi

mali_nora@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada xitoy tilini o‘qitish jarayoniga axborot texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy raqamli platformalar, mobil ilovalar, multimedia vositalari hamda onlayn ta’lim resurslarining til o‘rganish natijalarini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini, til kompetensiyasi darajasini va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida olib boriladigan ta’lim tinglab tushunish, og‘zaki nutq, o‘qish va yozish kabi asosiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, xitoy ierogliflarini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov tadqiqotlari natijalari axborot texnologiyalaridan tizimli va maqsadli foydalanish xitoy tilini o‘qitishning umumiy sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *xitoy tili, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim, onlayn platformalar, til o‘qitish metodikasi.*

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты интеграции информационных технологий в процесс обучения китайскому языку. В рамках исследования анализируется эффективность современных цифровых платформ, мобильных приложений, мультимедийных средств и онлайн-образовательных ресурсов в повышении результатов изучения языка. Результаты исследования показывают, что использование информационных технологий значительно повышает мотивацию обучающихся, уровень их языковой компетенции и навыки самостоятельного обучения. Кроме того, обучение с применением цифровых технологий способствует развитию основных языковых умений, включая аудирование, говорение, чтение и письмо, а также эффективному усвоению китайских иероглифов. Результаты экспериментального исследования подтверждают, что систематическое и целенаправленное*

применение информационных технологий приводит к существенному повышению общего качества и эффективности обучения китайскому языку.

Ключевые слова: китайский язык, информационные технологии, цифровое образование, онлайн-образовательные платформы, методика преподавания языков.

Abstract. This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of using information technologies in the process of teaching the Chinese language. Within the framework of the study, the effectiveness of modern digital platforms, mobile applications, multimedia tools, and online educational resources in improving language learning outcomes is examined. The research findings demonstrate that the integration of information technologies significantly enhances learners' motivation, linguistic competence, and independent learning skills. In addition, technology-based instruction contributes to the development of listening, speaking, reading, and writing skills, as well as the effective acquisition of Chinese characters. The results of the experimental study confirm that the systematic use of information technologies increases the overall efficiency and quality of Chinese language teaching.

Keywords: Chinese language, information technologies, digital education, online platforms, language teaching methodology.

KIRISH

Globalashuv jarayonida Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy, siyosiy va madaniy ta'siri ortib borayotgani sababli xitoy tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. An'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish xitoy tilini o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, iyeroglif yozuvi, fonetik tizim (pinyin), tonlar va madaniy komponentlarni o'rganishda raqamli vositalar katta imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi — xitoy tilini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va samaradorligini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdir.

Asosiy qism

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Xitoy tilini o'qitishda multimediya taqdimotlari, elektron darsliklar, mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar keng qo'llanilmoqda. Xitoy tilini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy axborot texnologiyalari:

1. Multimediya vositalari

Audio va video materiallar yordamida talaffuz, tonlar va tinglab tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi. Xitoy tilidagi autentik videolar talabalarning madaniy kompetensiyasini oshiradi.

2. Mobil ilovalar

Pleco, HelloChinese, Du Chinese kabi ilovalar lug'at boyligini kengaytirish, iyerogliflarni yozishni mashq qilish va mustaqil o'rganishga yordam beradi.

3. Onlayn platformalar

Zoom, Google Classroom, Moodle kabi platformalar masofaviy ta'limni samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytiradi.

4. Interaktiv doskalar va test tizimlari

Interaktiv doskalar yordamida vizual materiallardan samarali foydalaniladi, onlayn testlar esa bilimlarni tezkor baholashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda chet tillarini xususan xitoy tilini o'rgatishda, ayniqsa, onlayn platformalar yetakchi hisoblanmoqda. Onlayn platformalar an'anaviy darslarni to'ldiruvchi samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda “Chinese Plus”, “中国大学 MOOC” va “Coursera” platformalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Chinese Plus – xitoy tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan zamonaviy ta'lim platformasi bo'lib, u til o'rganishni interaktiv va bosqichma-bosqich tashkil etishga yordam beradi. Ushbu platformaning asosiy afzalliklariga to'xtaladigan bo'lsak: HSK darajalari (HSK 1–6) bo'yicha tuzilgan darslar; video, audio va interaktiv mashqlar uyg'unligi; leksika, grammatika va talaffuzni birgalikda rivojlantirish; mustaqil o'rganish uchun qulay interfeys kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Shuningdek, platformaning ta'lim sohasidagi ahamiyati: Chinese Plus talabalarda tinglab tushunish, to'g'ri talaffuz va kundalik muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchilar esa ushbu platformani qo'shimcha mashq va uy vazifasi sifatida samarali qo'llashlari mumkin.

Yana bir platforma, 中国大学 MOOC (Chinese University MOOC) — Xitoyning yetakchi universitetlari tomonidan taqdim etiladigan bepul va pullik onlayn kurslar platformasidir. Ushbu platformaning xususiyatlari shundaki, nufuzli universitet professorlari tomonidan o'tiladigan darslar, “大学汉语”, “汉语听说”, “中国文化” kabi kurslar mavjudligi, akademik xitoy tili va madaniyatga yo'naltirilgan kontentlar va sertifikat olish imkoniyati kabilardir. Ta'limiy ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu platforma xitoy tilini chuqur akademik darajada o'rganishga yordam beradi. Ayniqsa, filologiya yo'nalishi talabalari va kelajakda Xitoyda o'qishni rejalashtirayotganlar uchun muhim hisoblanadi.

“Coursera” platformasining ahamiyati, coursera — dunyo miqyosida mashhur bo‘lgan xalqaro onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, unda xitoy tiliga oid kurslar ham mavjud. “Coursera” platformasining asosiy afzalliklari deb quyidagilarni kiritdik,

xalqaro universitetlar va institutlar kurslari, ingliz tilida tushuntirilgan xitoy tili darslari, boshlang‘ichdan o‘rta darajagacha kurslar, sertifikat olish imkoniyati. Ta’limiy ahamiyati quyidagilardan iborat, coursera platformasi xitoy tilini global kontekstda o‘rganishga imkon beradi. Bu esa talabalar va mutaxassislar uchun xalqaro muloqot va kasbiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi.

Xitoy tilini o‘qitishda yana WeChat, YouTube, Xiaohongshu va boshqa onlayn platformalar ta’lim samaradorligini oshirishda yordam bermqda.

WeChat — Xitoyning eng mashhur ijtimoiy tarmog‘i bo‘lib, chat, jonli efir va guruh ishlari imkonini beradi. Xitoy tilini o‘rgatishda quyidagi afzalliklarni sanab o‘tishimiz mumkin, real vaqt rejimida yozma va og‘zaki muloqot; video va audio materiallar orqali talaffuzni mashq qilish; guruh mashg‘ulotlari va mini-testlar orqali interaktiv dars tashkil etish.

YouTube - video-platformasi sifatida xitoy tilini tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish uchun samarali vositadir: vloglar va dars videolari orqali tabiiy nutqni eshitish; grammatika va leksikani vizual materiallar yordamida o‘rganish; global hamjamiyat bilan muloqot imkoniyati kabilarni afzalliklari sifatida belgilab oldik.

Xiaohongshu — asosan yoshlar orasida mashhur ijtimoiy platforma bo‘lib, qisqa video va postlar orqali xitoy tilini o‘rganish uchun: kundalik iboralarni va slangni o‘rganish; vizual madaniyat va hayotiy kontekstni anglash; mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida quyida ko‘rib chiqilgan platformalardan foydalanish metodikasi.

Dars oldi va dars davomida video va chatlardan foydalanish. O‘qituvchi o‘quvchilarga mavzuga oid qisqa videolarni (YouTube, Xiaohongshu) tomosha qilishni topshiradi, keyin darsda savol-javob va muhokama tashkil qilinadi. WeChat orqali guruh chatlari va mini-testlar o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi. Nutq va talaffuzni rivojlantirish, audio va video materiallar yordamida o‘quvchilar tonlar, intonatsiya va ritmni real kontekstda eshitadi va takrorlaydi. Bu fonetik kompetensiyani rivojlantirishda samarali. Madaniyat va leksikani integratsiya qilish Xiaohongshu va YouTube’dagi videolar orqali o‘quvchilar xitoy madaniyati, urf-odatlar va kundalik hayot bilan tanishadi. Bu o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanilgan darslarda: o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi; talaffuz va eshitib tushunish ko‘nikmalari yaxshilanadi; mustaqil ta’lim olish malakasi rivojlanadi; o‘quv materiallari tez va samarali o‘zlashtiriladi.

Xitoy tilini o‘rganish jarayonida lug‘atlar asosiy yordamchi vosita hisoblanadi. Ierogliflarning murakkab tuzilishi, ko‘p ma’noilik va ohang (ton) tizimi sababli oddiy tarjima yetarli bo‘lmaydi. Zamonaviy raqamli lug‘atlar — TrainChinese, Pleco va 大 BKRS — til o‘rganuvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

TrainChinese — xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun maxsus yaratilgan interaktiv lug‘at-platforma. Ushbu lug‘atning asosiy afzalliklari deb quyidagilarni kiritdik: so‘zlarni daraja (HSK) bo‘yicha tasniflaydi; har bir so‘z uchun audio talaffuz (native speaker) mavjudligi; so‘zlarni eslab qolish (flashcard) tizimi; ierogliflarning yozilish tartibi (stroke order); so‘z birikmalari va real misollar bilan berilganligi. Ushbu lug‘atning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini ham ko‘rib chiqdik va: boshlang‘ich va o‘rta darajadagi o‘rganuvchilar uchun juda qulay, mustaqil o‘rganishga va so‘z boyligini oshirishga katta yordam beradi, mobil ilovalar orqali istalgan joyda foydalanish mumkin kabi xulosalarga keldik.

Pleco — xitoy tilini o‘rganishda eng mashhur va kuchli lug‘atlardan biri hisoblanib, lug‘atining asosiy afzalliklari: kamera orqali ieroglif tanish (OCR), qo‘lda yozib qidirish imkoniyati, bir nechta professional lug‘atlar bazasi, ohang va talaffuzni aniq ko‘rsata olish funksiyalari lug‘atning ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu lug‘atning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi va ahamiyatiga keladigan bo‘lsak, berilgan matni tarjima qilish va tezkor tekshirishda juda samarali, akademik va amaliy til o‘rganish uchun mos, o‘qituvchilar hamda til o‘rganuvchi ilg‘or talabalar uchun juda foydaliligidadir.

大 BKRS — xitoycha–ruscha eng yirik va mukammal lug‘atlardan biri. 大 BKRS lug‘atining afzalliklari quydagilar: so‘z va iboralarning chuqur va keng izohi, frazeologizmlar va terminologiya, rasmiy, ilmiy va adabiy matnlar uchun mos, ko‘p ma’noli ierogliflarni kontekstda tushuntiriladi kabilar. Lug‘atning o‘quv jarayonidagi

Ahamiyati, ilmiy ishlar va tarjima faoliyati uchun juda muhim, yuqori darajadagi o‘rganuvchilar (B2-C1) uchun foydali, xitoy-rus til juftligida chuqur tahlil imkonini beradi.

XULOSA

“Chinese Plus”, “中国大学 MOOC” va “Coursera” platformalari xitoy tilini o‘qitish va o‘rganishda zamonaviy, samarali va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratadi. Ular talabalarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasini oshiradi. WeChat, YouTube, Xiaohongshu va boshqa platformalar xitoy tilini o‘qitishda zamonaviy, samarali vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning nutq, tinglab tushunish, yozma nutq va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Platformalardan

pedagogik maqsad va metodik rejaga asoslangan holda foydalanish dars samaradorligini sezilarli oshiradi.

Lug'atlar borasidagi xulosamiz shuki har uchchala lug'atlar xitoy tilini o'rganishda bir –birini to'ldiruvchi vositalar hisoblanadi. Ushbu lug'atlardan samarali foydalanish xitoy tilini o'rganish jarayonini tezlashtiradi, so'z boyligini oshiradi va mustaqil ta'limni yanada samarali qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xitoy tilini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, xitoy tili o'qituvchilari raqamli pedagogika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz, ta'lim jarayonida an'anaviy va zamonaviy usullarni o'zaro bog'lagan holda darslarni tashkillashtirishimiz darslarning samaradorligini yanada oshga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 王小明. 现代汉语教学法. 北京: 北京语言大学出版社.
2. Harmer J. How to Teach Foreign Languages. London: Longman.
3. 陈琳. 信息技术与汉语教学. 上海: 华东师范大学出版社.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.